

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSLARI KAFEDRASI**

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**  
**fanidan**

# ***REFERAT***

**AHMEDOVA HAFIZA QO'CHQOROVNA**

**Bakalavriat yo'nalishi: 5141700 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish**

**Buxoro –2014**

# **KOMIL INSON TARBIYASI SHARQ MUTAFAKKIRLARI TALQINIDA**

Reja:

- 1.O`rta Osiyo halqlari ahloqshunoslik sohasidagi milliy merosi
2. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, M.Qoshg`ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy, Imom Buxoriy, At Termiziy, A.Temur, A.Navoiy kabi buyuk siymolarning tarixiy asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyati
3. Abu Nosir Farobiy asarlarida insonning ahloqiy xislatlarini ta`riflanishi
4. Sharq mutafakkirlarining merosida oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalash
- 5.Tarbiya vazifalari va mazmuni shahsning milliy va umumbashariy qadriyatlarni o`rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma`naviy-ahloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida.

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

**KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Barkamol shahsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, ammo bugungi sifat o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada kuchayib talab ortib bormoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayoni qayta ko'rib chiqilib uni rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishi ta'limni tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini berdi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qancha nutq va risolalarida istiqbolga erishishning yo'llari, tamoyillarini aniq va ravshan ko'rsatib bergan. I.A.Karimovning «Istiqlol va ma'naviyat», «O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Barkamol avlod orzusi» kabi asarlarida jamiyatning ma'naviy jihatdan yangilanishi va rivojlanishining asosiy negizlari bayon etilgan.

O'tish davrining eng asosiy hususiyatlaridan biri bu - jamiyatning ma'naviy jihatdan yanada yuqori pog'onaga ko'tarilishidir. Chunki o'tish davri birinchi galda jamiyatdan ma'naviy o'sishni talab etadi. Ma'naviy o'sish o'z navbatida fan-tehnika, madaniyat, san'at hamda iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash masalasi o'ta dolzarb masaladir.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirish nazarda tutilgan. Bunday natijaga erishish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining uyg'unligini ta'minlash, tarbiya jarayonining qonuniyatlarini chuqur o'rganish va bugungi kun talablariga javob bera oladigan barkamol yosh avlodni tarbiyalash usullarini tadqiq qilish lozim.

Ma'naviyati yuksak shaxslar yurtni tanitadi. Shaxsni esa uning ma'naviy qiyofasi tanitadi. Ma'naviyat–tarbiyadan boshlanadi. Ta'lim–tarbiyasiz ma'naviyatning bo'lmasligi barchaga ayon haqiqatdir.

Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so'zlari fikrimizga dalil bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan etuk shahs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.

**Ahloq** ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Ahloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Odob – odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i, ahloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlarini sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Ahloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Ahloq ilmi yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning ahloq-odob ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolatu diyonat, hayoyu iffat,

vafoyu sadoqat, himmatu saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, Ayni holda shu xislatlarning aksi beburd, ahloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi.

Qadimgi faylasuflaru donishmandlar ahloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Asrlar davomida ahloq-odob mavzuida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmatu rivoyatlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi xazinalarida ahloq-odobga doir bebaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab-hisobiga, ta'riflab-ta'rifiga yetib bo'lmaydi. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy ahloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan.

2. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar ahloqiy tarbiyaning vazifalaridir.

Ahloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Imon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – yangi ko'rilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho'rocha ahloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy ahloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ahloqiy tarbiya vazifalaridan biri – ongli intizom bo'lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir. Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z ahloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti-harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi.

Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga to'g'ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar" deb ta'kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

3. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy "o'zgarishlar" ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog'liq. Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgaralarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z hayotida ahloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

4. Turon zaminimiz xalqlari ahloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Ahloqqa oid dastlabki fikrlar "Avesto" kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'g'itlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarida, allomalar merosida ahloqiy masalalarga keng o'rin berilgan.

Hadisi shariflardagi ahloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning ahloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur ahloqi husniya – yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinlariga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning ahloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'illarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin".

Ismoil Al-Buxoriy "Ahloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir", - deb yozadi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ahloq haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning ahloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning ahloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Abu Ali ibn Sinoning ahloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo'lmish "Tib qonunlari", "Ash-shifo" va boshqa asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, odamga do'st tutinishning uch xil yo'li bor:

"Birinchidan, har qanday qiyinchilik bo'lishiga qaramay, kishi o'z do'stini falokatdan qutqarishni, ikkinchidan, g'oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo'lgan chinakam va doimiy do'stlikni va uchinchidan esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o'zining shaxsiy manfaatini qondirish ko'zda tutilgan do'stlik bo'ladi", - deb ta'kidlaydi Ibn Sino.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilik" dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga e'tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo'lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo'ladi. Shuningdek, "Hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta'limi bor, tartib, odob qoidalarini to'g'ri tutsa, kishining yuzi yorug' bo'ladi", - deb ta'kidlaydi.

**O'tmishda** ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, ta'lim tarbiya masalalarini muayyan ilmiy yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalar-da, biroq allomalarning qo'lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo'liish, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik pedagogik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bo'lishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tugilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va ahloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishyning eng etuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlar chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zahirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Beruniy ta'lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o'qitish tabiatga uygunligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta'lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo'lgan.

O'rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri - komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u

o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yuriqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, ahloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

Alisher Navoiyning «Xazoyinul maoniy», «Mahbubul qulub» va boshqa shu singari asarlarida etuk, barkamol insonning ahloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi.

Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat'iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mashmud Qoshgariy, Ulugbek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk harq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, ahloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

### **Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar.) barkamol shahs tarbiyasi haqida.**

Pedagog olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim-tarbiya, shahs ma'naviy kamoloti masalalariga bao'ishlangan ilmiy tadqiqotlari pedagogika fanining rivojida muhim o'rnini bor. Lekin ular allomalar merosida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar.

Aslida esa Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

Sharq Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma'naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko'tarilgan, boy davri bo'lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo'nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko'zi bilan egallanadi, ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o'rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur'onda va Sunnada bo'lgan Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo'l-yo'riqlari tashkil etadi.

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarish markazi "Ma'mun akademiyasi" (IX asr, Bao'dod,"Baytul hikma") tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida" Yaqin va O'rta Sharq halqlari moddiy va ma'naviy madaniyatining qo'shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining mahsus bir-biridan ajratilmagan ko'p qirrali qorishiq turi vujudga keldi<sup>1</sup>. Bunday ko'p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Horazmiy (780-850), Ahmad al-Faro'oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al - Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) va boshqalarning hizmatlari katta bo'lgan.

Demak, bu davr o'zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarning etishib chiqqanligi bilan qimmatlidir. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan harakterlidir. Ular:

- aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langan qadriyatlar;
- ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- badiiy-nafis qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

---

<sup>1</sup> T i l l a s h e v H. H. Obxee pedagogicheskie i didakticheskie idei uchenno'h entsklopedistov Blijnogo i Srednego Vostoka epohi srednovekovaya. Tashkent. Fan, 1989. S. 10.

Inson ahloqi aqlga, hulq va hatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga va ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va ma'rifatli bo'lishga bo'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida uluo'laydilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqiradilar, ilmning inson ma'naviy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydilar.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson hislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi.

Forobiy ta'limotiga, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga-ruhiy quvvatga-aql va so'zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi.

Forobiy o'zining "Baht-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bo'liqligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir".<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> Abu Rayhon Beruniy. Cyilar, ?ikmatlar, naillar, she'rlar. Tokent.: YOsh gvardiya, 1973. 44- bet.

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muhlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning bahti esa uning bilim va ma'rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra hayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, ahloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni uluo'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qaerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,  
Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.  
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,  
Bilimli, zakovatli tilakka etadi.

Yusuf Hos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmoo'i lozimligini ta'kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o'rgatilmoo'i kerakligini aytib, ularni go'zal ahloqli qilib, voyaga etkazishni ota-onalarga maslahat beradi:

Hudo kimga zakovat, aql, bilim bersa,  
U barcha orzularga qo'l uzatadi.  
Kimning hulqi yahshi, fe'l-atvori to'o'ri bo'lsa,  
U tilagini topadi, kun va oy unga boqadi.

Yahshi fe'l-atvor barcha ezguliklarga moyadir, hulq-atvor barchasi yahshi bo'lsa, ming-ming sevinch bo'ladi.

Umuman, Yusuf Hos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida til odobi, rostgo'ylik, poklik, kamtarlik sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat kabi fazilatlar hususida qilgan Hikmatli pandu nasihatlari bilan kishilarni, yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o'zgalarga o'amho'r va mushfiq bo'lishi har bir ishni o'z o'rni va o'z vaqtida ado etishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda bugungi davr talabiga hamohang ravishda insonni komillikka hidoyat qiladi.

Abu Ali ibn Sino etika va ahloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosida yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'htalib: "Bola tuo'lgach, avvalo, ota unga yahshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yahshilab tarbiyalashi kerak", deb maslahat beradi.

Al-Horazmiy esa insonning hulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy nazdida ta'ma aralashgan yahshilik hikmat, himmat insonning ma'naviy hissiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatdir. Ta'masiz yahshilik qilish bu sahiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi sahiylik va himmatdir. Yuksak insoniylikning o'lchovi bu vijdon hisoblanadi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlari vijdon pokligi, oila, ota-ona, halq, farzand burchi haqida olg'a surilgan g'oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi.

Chunonchi, ota-ona farzandlarning o'zaro munosabati, burchi ma'naviy qadriyatlarning oltin kalitidir. Alisher Navoiy bu haqda quyidagicha fikrlaydi:

"Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.  
Ikki jahoningga tilarsan fazo-  
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.  
Tun-kuningga aylagali nur fosh,  
Birini oy angla, birisin quyosh.  
So'zlaridin chekma qalam tashqari,

## Hatlaridin qo'yma qadam tashqari".<sup>1</sup>

Sharq mutafakkirlari didaktik harakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini qorishiq holda bayon etdilar. Chunki o'rta asr pedagogik fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning lisoniy shakl va usullariga tayangan. Ta'lim-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo'lib hisoblangan edi. Bu qoida ayniqsa, Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, urjuzalarida, "Donishnoma" asarida, Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub" asarlariga bevosita taalluqlidir.

Mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy fazilatlarini umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular "Fozil jamoa", "Fozil shahar", komil insonni shakllantirishning asosi ma'naviy omillarga bo'liq degan o'g'g' yani ilgari surdilar.

Hulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida o'tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to'o'ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni yuksaltiradi, balki komil inson shahsini shakllantirishda ham muhim hissa qo'shadi. Chunki inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yahshilik, adolat, do'stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, iymon, e'tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan.

---

1. Alisher Navoiy. Layrat ul-abror. Toshkent: Yafur Yulom nashriyoti, 1989, 76 – bet.

**Tarbiya vazifalari va mazmuni shahsning milliy va umumbashariy qadriyatlarini o'rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma'naviy-ahloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida.**

Aqliy tarbiya – shahsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shahs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va ahloqiy sifatlarga ega shahsni tarbiyalashda etakchi o'rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, hotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shahs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o'zlashtirilishiga erishish;

- bilishga bo'lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;

- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;

- bilishga bo'lgan faollikni kuchaytirish;

- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o'rta ta'lim va mahsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish.

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Muhammad alayhissalom o'z hadislarida; «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Hitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh bahtsiz daqiqlarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir» deydi.

Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deydilar.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va SHirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Ahloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va hulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Ahloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Ahloqiy tarbiya asosini shahsni ijtimoiy ahloqiy me'yorlardan habardor etish tashkil qiladi. Ahloq (lot. «moralis» - hulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllarida biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shahs hatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va hulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur'oni Karim va Hadisi Shariflardagi ahloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Horazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buhoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy Alisher Navoy va Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ahloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amho'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrihohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yorini hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga hos fazilatlaridir».

Amir Temur ahloqi husniya – yahshi hulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod

etishda ham shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki etti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buhoriy «Ahloqning yahshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga hiyonat qilmaslik – mana shu to'rt hislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, ahloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida etakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, ahloqiy tarbiya insonlarni yahshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. YAhsli hulqlarning yahshiligi, yomon hulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Huddi shu ma'noda ahloh kishining hulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Ahloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, ularni to'g'ri jismoniy rivojlantirish;
- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammalashtirish;

- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- ularning irodaviy sifatleri (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;

- o'quvchilarning gigienik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma'naviy-ahlohiy sifatlar (dadillik, qat'iyatlik, intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish)ni tarbiyalash;

- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish;

- o'quvchilarning sog'lom va baquvvat bo'lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg'ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta'minlovchi qo'shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog'langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shahsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta'kidlaganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da'vat etishdir.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shahsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchilarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shahsda ma'naviy-ahloqiy va irodaviy sifatlerini shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Halqimizning «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qoʻrqma, minnatdan qoʻrq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Nahshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan hikmati bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli boʻlsa, u bilimni haqiqatga bagʻishlaydi, oʻz mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi boʻlmasa, bilimni kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Taʼkidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda doʻstlik, birodarlik, jamoa boʻlib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, ahloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson oʻzining va oʻzgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga oʻrgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida eʼtibor berishgan. Oʻzlari farzandlariga mehnatsevarliklari bilan namuna boʻlganlar. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Krimov taʼkidlaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qoʻyib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oʻrtaga qoʻyilgan maqsadlarga erishish oʻzlariga bogʻliq ekanligini, yaʼni, bu narsa ularning sobitqadam, gʻayrat-shijoatiga, toʻla-toʻkis fidokorliligiga va cheksiz mehnatsevarligiga bogʻliq ekanligini anglab etishlari kerak. Huddi shu narsa davlatimiz va halqimizning ravnaq topishining asosiy shartidir».

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik oʻz mehnatini ayamaskliklari, ayniqsa, maktab oʻquvchilarida mehnatga va mehnat ahliga toʻgʻri munosabatni shakllantirishdagi masʼuliyatni chuqur his qilishli kerak.

Nafosat tarbiyasi (estetik tarbiya: lot. «estezio» – «goʻzallikni his etaman» maʼnosini bildiradi) shahsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush goʻzalliklarini anglash, idrok etish, toʻgʻri tushunishni oʻrgantish, ularning estetik didini oʻstirish, ularda goʻzallikka muhabbat uygʻotish,

shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, ahloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shahsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklari va ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- shahsda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go'zalliklarini anglash va idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash,
- unda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya ahloqiy qiyofa, ijobiy hulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarida musiqa va tasviriy san'at darslari, adabiyot kabi fanlarning o'qitilishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining ohirigacha amalga oshiriladi. SHu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go'zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Halqimizda, «Oq bo'lmasin, pok bo'lsin», «Pokliging – sog'lig'ing», «Sog' yuray desang, ozoda bo'l», «Yahshi libos tanga oroyish» kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarini ko'ra bilishga, ularni qadrlashga o'rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go'zal jihatlarini ko'ra bilishnigina emas, balki ichki go'zallikni his qilish hislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi hulqiy go'zallikni qadriga etishga undaydi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go'zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga etishishda holasi Mehribonuning tarbiyaviy ta'siri katta bo'lgan. Shirin mamlakat

obodonchiligi, kanal qizish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va usha hayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og'ir damlarda ham Farhodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo'lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz edi. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o'rnak bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) o'quvchilarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- 2) ularda amaliy estetik ko'nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida o'quvchilarda quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan habardor bo'lish;
- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etishi;
- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, hatti-harakat hamda tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san'at, musiqa, horeografiya to'garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Biroq, hozirgi zamon maktablarida tashkil etilayotgan estetik tarbiya shahsni estetik jihatdan shakllanishini ta'minlash borasidagi mavjud talablarga javob bermayapti.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining hususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Hususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug'ilganda mavjud bo'lgan bo'lsa, aqliy bilimi, ma'naviyati, ruhiyati, intellektual va ahloqiy sifatlari, harakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta'sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e'tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o'zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda hususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko'radi, o'z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko'pdir. Ular zamoni iqqolli bo'lib, turli fikr va hotiralar ularga qo'shilib borsa, ko'payadi. Odamlarning ilmlarga rag'bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o'sha iqqolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko'payishiga sabab bo'ladi» Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o'zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni hato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi».

Yusuf Hos Hojibning «qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson

kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir,

Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish etakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Hilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puhta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti hususida to'htalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, ohiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraht kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg'u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yahshi hulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz,

saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va ohiratimiz ilmga bog'liqdur».

O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo'lib, ular sirasida ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma'ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o'quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o'yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, hususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib hizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shahsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

### **Oilada komil inson tarbiyasi**

Ahloq kishilarning hulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. ahloq tarihiy hususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida avlolar tomonidan to'plangan ahloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Ahloq ilmiy yahshilik bilan yomonlik o'rtasidagi muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolatga erishish yo'lini yoritib

boradi. har bir inson bir olam bo`lgani kabi uning ahloq odobi ham juda murakkab olam desak yanglishmaymiz. Chunki shahsning ichki va tashqi olamini o`rganish, bilish, tahlil qilish G`oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog`liq holatdir. Ahloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yahshi hislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavq at, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e`tiqod kabilar mujassam bo`ladi, ayni paytda shu hislatlarning aksi-beburd, ahloq siz kimsalar fe`lida ko`rinadi. har bir halq ning nufu`zi va obro`-shuhrati kishilarning ahloq -odobi, yahshi hislat fazilatlarini bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o`z ihtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan G`oyani ilgari surgan edilar. Ular o`z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma`nfaatlari bilan bog`liq deb isbotlamoq chi bo`lganlar. SHunga ko`ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug`ullanishi kerak, degan G`oya ilgari surilgan. Ammo, sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug`ullanishi kerak, degan hulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e`tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidanyaratilgan "Avesto" kitobida ham ta`lim-tarbiyaga, ahloq -odobga oid qator G`oya va qarashlarni ko`rish mumkin. "Avesto"da ta`kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yahshi o`q ish va yozishga o`rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat q`ilib, mehnatning tagi rohat ekanligini anglatish uchun daraht ko`chati o`tkazishga, uy-ro`zg`or g`urollari yasash, erga ishlov berish va chorva bilan shug`ullanishga o`rgatilishi shart. Zotan uning fikricha yahshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o`z qo`llari bilan moddiy noz-ne`matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham etmaydi.

U yuq oridagi fikrni davom ettirib, "Inson nafaqat mehnati tufayli o`zini va oilasini bog` adi, balki unda erga va yurtga bo`lgan muhabbati ham paydo bo`ladi. Zotan har bir inson o`zi o`sib Qulg`aygan zaminni, mamlakatni eng yazshi va go`zal mamlakat deb tushunmog`i kerak". Uning bu fikrlaridan har bir inson faq at

o`zining emas balki farzandlarini ham mehnatsevar q`ilib tarbiyalashi lozim. Chunki mehnatsevar bo`lmasdan turib, o`z erini, o`z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Qur`oni Karim, hadisi Shariflarda oila va oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo`lib, u o`z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni g`amrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan o`rtacha qo`yilsada ular kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiq`ganligi uchun ham kundalik turmushga muvofiq dir. Islomda oilaviy tarbiyaning o`ziga hos hususiyatlari ham kursatib o`tiladi. Bu hususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo`lib, insonni ma`naviy-ahloqiy tarbiyalash haqidagi umumiy G`oya bilan bog`liq . Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiq`ishini o`rganish, jismoniy va ma`naviy poklikga e`tibor berish an`anaga aylangan. Islomiy ma`naviyatda bolani oilada ahloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikga, ezgulikga va yahshlikga da`vat etgan uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko`ra, islom musulmonlariga hos bo`lgan diniy qadriyatgina bo`lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaq`illik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo`lgan munosabat tubdan o`zgardi va u oilada bolalarni ahloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sharq` mutafakkirlarining ta`lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haq`idagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig`ida shakllangan. Sharq` mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy G`oyalar islomiy ma`naviyat bilan hamohangdir.

Sharq` mutafakkirlarining ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e`tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Horazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad qoshqariy, Yusuf Hos` Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma`naviy-ahloqiy tarbiyalash masalalari o`rtaga qo`yilgan va ularni hal etish yo`llari kursatib berilgan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Horazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki hil: tug`ilish otasi

va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni o'zviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yahshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yahshiroq talim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning ahloqiy fazilatlarini, umuman ahloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri va namunali benihoya kattadir. Masalan u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: "Rashkdan saq langin. U taloq ning kalitidir. eringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta'qiqalayman. Chunki tanbeh nafrat uyg'otadi. o'zingni bezab yurgin. Buning uchun yahshi vosita surmadir. Yana hushbo'y atirlardan foydalangin. Ularning ichida eng yahshisi suvdur". Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta'luqlidir.

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o'rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u erda ma'naviy poklik ham bo'ladi. Bu fikrni tanani toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to'g'risidagi G'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy-ahloqiy boylik o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saq lashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq G'azablanishdan, qo'rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan o'zoq lashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha hulqlarni keltirib chiq aradi. Mutafakkir bola-hulq atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiq ishini ham ilmiy asoslab beradi. Beruniy bola

tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta'sirini birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi. Beruniy ahloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Ahloqiylik yahshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o'z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. U o'zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o'rganish borasida ko'plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo'lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma'naviy-ahloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi G'oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga baqishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'htalib, "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom baqishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu umidi yurak to'ridan silqib chiqadi. Bu o'ziga hos qo'shiq bolasi uchun qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglolmagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Huddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", degan fikrni bildiradi.

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Agar oilada – deydi u, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yahshi tarbiyalay olmaydi va o'qibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin". Bola yahshi yo'lga qo'yilsa, oila bahtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu

vazifani ma'suliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino "tadbiri al-manozil" asarida er va hotinning yahshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shahsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtiriladi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy – ahloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni Ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini kursatib beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Hos hojib o'zining "Qutadg'u bilig"da bola tarbiyasi haqida to'htalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo'lsa ota-onasining yo'zi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning ma'suliyatiga alohida e'tibor beradi. "Kimning o'g'il-qizi erka bo'lsa, deb yozadi u unga shu kishining o'zi mungli bo'lib yiqilaydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo'ysa bolada gunoh yo'q barcha jafotaning o'zida; o'g'il-qizning hulq-atvori yaramas bo'lsa, bu yaramas ishni ota qilgan bo'ladi. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o'rgatsa, ular ulg'aygach, o'g'il-qizim bor deb sevinadi; o'g'il-qizga hunar va bilim o'rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe'l-atvorlari go'zal bo'lsin". Yusuf Hos Hojib o'z asarida shunday fikrlarni o'rta qo'yadi, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi.

Yusuf Hos hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan q'uvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqa alarga o'rgatishi lozim. Lekin odob-ahloq, rasm-rusum odat va prodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak bo'ladi. Bu narsa ta'lim tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Uning bu tarzidagi pedagogik qarashlari bitta asosiy masalaga borib taq'aladi. Bu barkamol inson masalasidir. Inson, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o'rnini, ijtimoiy vazifasi mutafakkir tomonidan turli jihatlarda tahlil qilinadi. Odam bolasi bu yorug' olamda ezgulik qilish uchun yaratilgan. Shunga ko'ra uni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga odamlar uchun yahshilik qilish tuyg'usini singdirishdan iborat. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir.

Sharq da keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning “qobusnoma”sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o`rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda o`z hissasini qo`shib kelmoqda. “qobusnoma” falsafiy didaktik asar bo`lib, shahs shakllanishining barcha tomonlarini o`z ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan bobini bevosita oiladagi bola tarbiyasiga baqishlanadi. “qobusnoma”da ota-onaning qator vazifalari sanab o`tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. bolaga yahshi ism qo`yish;
2. oqil va mehribon engaga topshirish;
3. to`y-tomosha qilib, sunnat to`y o`tkazish;
4. o`qish – yozishni o`rgatib, kasb – hunar va ilmiy qilish;
5. harbiylar ahlidan bo`lsa, sipohiylikni o`rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta’kidlaydi. “Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o`rganur, o`z ihtiyori bilan o`rganmas. Ammo farzand beadab bo`lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o`z qo`ling bilan urmagil, muallimlarning tayoqi bilan qo`rqitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o`g`lingni ko`nglida gina qolmasin”.

Kaykovusning “Qobusnoma” asari bugungi kunda ham ahloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma’naviy ahloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o`rinni egallaydi. Uning fikricha, jamiyatning etukligi, uning taqdiri va kelajak yoshlar kamoloti bilan bog`liqdir, shunga ko`ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

A.Navoiy ota-onalarning yahshi sifatlarini ulug`laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo`lishi bola tarbiyasida muhim rol o`ynashini kursatib o`tadi. Masalan uning hotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Yahshi hotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va bahti. uy egasining hotijam va osoyishtaligi undan.

husinli bo`lsa – ko`ngil oziQi, hushmuomala bo`lsa jon oziqidir. Oq ila bo`lsa, ro`zg`orda tartib-intizom bo`ladi. U beandisha bo`lsa, ko`ngil undan ozor chekadi, yomonlik ahtaruvchi bo`lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayho`r bo`lsa, uy obodligi yo`q oladi, aqlsiz bo`lsa, oila rasvo bo`ladi”.

A.Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o`zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta`siri va uning bo`zilishiga sabab bo`luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yahshi va yomon hulqlar va ularning kelib chiq ishi sabablarining kursatib beradi. Bolada paydo bo`ladigan yomon hulqlarni oldi olinmasa, bora-bora illatga aylanadi – deb uq tiradi.

**XULOSA.** Yuqoridagi fikrlardan ma`lum bo`ldiki, sharq murafakkirlari o`zlarining pedagogik qarashlari bilan o`z davrlaridan ancha ilgarilab ketganlar. Ularning bu qarashlari bir necha asrlardan beri ajdodlarimiz tafakkurini boyitib kelmoq da va hozirgi kunda ham ular o`z qiymatini yo`q otgani yo`q Ular bizning ma`naviy qadriyatimizdir. Shunga ko`ra mutafakkirlarning o`lmas marosi oilada bolalarning ma`naviy ahloq iy tarbiyalashning muhim omili bo`lib qoladi.

## ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". O'quv qo'llanma. Toshkent, "FAN" 2008 y.
2. Mavlonova R.A., To'raev O.T., Xasanboeva O, Xoliqberdiev K.M. - «Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 1998 i.
3. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ish metodikasi – T.: Istiqlol, 2003.
4. Shodmonova Sh., Tilobova N. "Tarbiyaviy ishlar uslubiyoti" o'quv predmetidan ta'lim texnologiyasi – T.: TDIU, 2006.
5. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitaniya. Rostov nqD.: Feniks, 2006.
6. Kukushin V.S. Teoriya i metodika vospitatelnoy raboto'. – Rostov nqD.: MarT, 2004.
1. Abu Xikmat Gazzoliy. Yanglishuvlaridan qutqaruvchi shaxs mash'ali. Turkiston - 1992y.,-2 son.
2. Milliy maktab roydevorini yaratish yo'lida. Jamoa - Toshkent, 1990
3. Roziqov O.R. Ogaev S.Yu., Ogaev S.Yu., Maxmudova M.M., Azizov B.R. Didaktika T. Fan - 1997 i.
4. Mirkosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. T.: "O'qituvchi", 1996 i.
5. Lixachev B.T. Pedagogika – M.: VLADOS, 2003.
6. Podlo'so'y I.P. Pedagogika. – M.: VLADOS, 2003.
7. Obshaya pedagogika q Pod.red. V.A. Slastenina. – M.: VLADOS, 2003.
8. Boldo'rev N.I. Metodika vospitatelnoy raboto' v shkole. – M.: Rospedagenstvo, 1997.